

**O‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA YANGI IQTISODIY SIYOSAT  
(YAIS)NING AMALGA OSHIRILISHI VA UNING IJTIMOIIY-IQTISODIY  
OQIBATLARI (1921–1929 YY.)**

**Jasur Djaloldinovich SOLIEV**

katta o‘qituvchi

Qo‘qon universiteti Andijon filiali

Andijon, O‘zbekiston

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada 1921–1929-yillarda Sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan Yangi iqtisodiy siyosat (Y AIS)ning O‘zbekiston hududlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta’siri tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan. Turkiston ASSR, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi va Xorazm Xalq Sovet Respublikasi misolida Y AISning joriy etilishi, uning agrar sektor, sanoat, savdo va kooperatsiya tizimida o‘zgarishlarga olib kelgani ochib berilgan. Y AIS davrining o‘lka iqtisodiyotini tiklashga xizmat qilgani, biroq keyingi ma’muriy-buyruqbozlik tizimiga o‘tish uchun zamin yaratgan murakkab va ziddiyatli bosqich bo‘lgani baholangan.

**Tayanch so‘zlar:** Yangi iqtisodiy siyosat (Y AIS), Turkiston ASSR, Buxoro XSR, Xorazm XSR, natural soliq, ijara munosabatlari, kooperatsiya, xususiy tadbirkorlik.

**ОСУЩЕСТВЛЕНИЕ НОВОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ (НЭП)  
НА ТЕРРИТОРИИ УЗБЕКИСТАНА И ЕЁ СОЦИАЛЬНО-  
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ**

**Джасур Джалолдинович СОЛИЕВ**

Старший преподаватель

Андижанский филиал Кокандского университета

Андижан, Узбекистан

**Аннотация**

В данной статье на основе исторических источников анализируется влияние Новой экономической политики (НЭП), проведенной советской властью в 1921–1929 годах, на социально-экономические процессы на территории Узбекистана. В исследовании на примере Туркестанской АССР, Бухарской Народной Советской Республики и Хорезмской Народной Советской Республики раскрывается процесс внедрения НЭП и его последствия для аграрного сектора, промышленности, торговли и системы кооперации. Автор оценивает период НЭП как сложный и противоречивый этап, который способствовал восстановлению экономики региона, но одновременно создал предпосылки для последующего перехода к административно-командной системе.

**Ключевые слова:** Новая экономическая политика (НЭП), Туркестанская АССР, Бухарская НСР, Хорезмская НСР, натуральный налог, арендные отношения, кооперация, частное предпринимательство.

O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi bo‘lgan Yangi O‘zbekiston sharoitida tariximizni o‘rganishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning “Bir haqiqatni ta’kidlash kerakki, Vatanimiz hududida mavjud bo‘lgan har bir davlatchilik tuzumi, har qanday ijtimoiy jarayon – u g‘alaba yoki mag‘lubiyat bo‘ladimi, yuksalish yoki tanazzul bo‘ladimi – barcha-barchasi xalqimiz bosib o‘tgan murakkab tarixiy yo‘lning uzviy va ajralmas qismidir. Shuning uchun ham biz tariximizning barcha bosqichlarini yaxlit holda qabul qilib, har tomonlama chuqur o‘rganishimiz zarur. O‘tmishdagi yutuq va g‘alabalaridan kuch-quvvat olib, xato va mag‘lubiyatlaridan xulosa va saboq chiqarib yashaydigan xalq o‘zining taraqqiyot yo‘li va kelajagini to‘g‘ri belgilay oladi” degan fikrlari biz tarixchilar oldiga yangi maqsadlarni qo‘ymoqda. Vatanimiz tarixidagi muhim davrlardan biri 1921–1929-yillardagi Yangi iqtisodiy siyosat davri ham har tomonlama o‘rganilishi zarur bo‘lgan davrlardan biridir.

XX asrning birinchi yarmida Sovet davlati tarixidagi muhim o‘zgarishlardan biri Yangi iqtisodiy siyosat (YAIS) bo‘lib, u 1921–1929-yillarda amalga oshirilgan edi. Bu siyosat V.I. Lenin rahbarligidagi bolsheviklar hukumati tomonidan harbiy kommunizm siyosati natijasida vujudga kelgan iqtisodiy inqirozni bartaraf etish maqsadida joriy etilgan. Harbiy kommunizmning qattiq markazlashtirilgan iqtisodiyoti mamlakatda ocharchilik, sanoatning izdan chiqishi va dehqonlarning noroziligini keltirib chiqarganidan so‘ng, YAIS bozor elementlarining qisman tiklanishiga imkon berib, xususiy savdo, kichik korxonalar va dehqon xo‘jaliklarining faoliyatini qo‘llab-quvvatladi. Bu siyosat nafaqat iqtisodiy tiklanishni ta’minladi, balki sovet jamiyatining ijtimoiy-siyosiy murakkabliklarini ham ochib berdi.

Aslida yangi iqtisodiy siyosatga o‘tish va uning asosiy qoidalari V.I.Lenin 1918-yilda yozgan asarlaridayoq, aniqrog‘i, “Sovet hokimiyatining navbatdagi vazifalari”, “Детская болезнь “левизны” в коммунизме” nomli ma’ruza va kitoblarida ko‘rsatib bergan. 1921-yil 8–16-mart kunlari Moskvada Rossiya Kommunistik partiyasining RKP(b) X qurultoyida oziq-ovqat solig‘ini natural

soliq bilan almashtirish, harbiy kommunizmdan ko'p millionli dehqonlarni sotsializm qurilishiga jalb qilishga mo'ljallangan yangi iqtisodiy siyosatga o'tish to'g'risida tarixiy qaror qabul qildi.

V.I.Lenin RKP(b)ning X qurultoyidagi ma'ruzalarida fuqarolar urushi yillarida oziq-ovqat razvyorkasi va harbiy kommunizm siyosati ijobiy rol o'ynaganini qayd etib, tinchlik davrida bu siyosat dehqonlarning haqli noroziligiga sabab bo'lishini, ishchilar va dehqonlar o'rtasidagi ittifoqni buzilishiga olib kelishi va ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirishga halaqit berishini qayta va qayta ta'kidlagan.

Turkistonda yangi iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda Turkiston ASSR MIQ tomonidan 1922-yil 11-aprelda qabul qilingan "Natura solig'i to'g'risida"gi qarori muhim o'rin egallaydi. Qarorga muvofiq, oziq-ovqat razvyorstkasi tizimi bekor qilinib, yalpi qishloq xo'jaligi hosilining 10 foizi miqdorida oziq-ovqat solig'i joriy etildi. Natijada dehqonlardan undiriladigan soliq sezilarli darajada kamaydi hamda qishloq xo'jaligi rivojlana boshladi. Oziq-ovqat taqsimotini oziq-ovqat solig'i bilan almashtirish Yangi iqtisodiy siyosatning asosini tashkil etdi. Oziq-ovqat solig'idan ortib qolgan hamma ortiqcha mahsulotlar dehqonlar ixtiyoriga o'tib, bu mahsulotlarni dehqonlar ixtiyoriy tasarruf qilishlari mumkin edi.

Rossiyaning boshqa hududlaridan farqli ravishda Turkistondagi oziq-ovqat solig'i sakkiz turdagi natura soliqlarini, jumladan, asosiy oziq-ovqat mahsulotlari va texnik ekinlar (paxta, kanop) va yem-xashak mahsulotlarini ham qamrab olgan.

Turkiston ASSR MIQ 1921-yil aprel–may oylarida respublikada yangi iqtisodiy siyosatni amalga oshirishga qator qarorlar qabul qilgan. Rasmiy jihatdan Turkistondagi yangi iqtisodiy siyosat yo'li Turkiston Kompartiyasining VI syezdi (1921-yil avgust) va Turkiston ASSR Sovetlarining X syezdi (1921-yil sentabr) qarorlarida tasdiqlandi [6;262].

Xo'jalik boshqaruvining yangi sharoitlariga o'tish boshqaruv sohalarini qayta qurish va tashkil qilish bilan ham bog'liq hisoblanadi. Turkiston o'lkasi iqtisodiyotini dastlab Turkiston ASSR Xalq Xo'jaligi Markaziy Kengashi (SSNX)

boshqarar edi. 1921-yil yanvar oyida SSNX boshqaruvida 857 ta korxonalar mavjud bo'lgan. 1921-yil mart oyida Turkiston Iqtisodiy Kengashi (TES yoki Turk EKOSO) tashkil qilindi. Turkiston ASSR MIQ va XKSning 1921-yil oktabrdagi qarori bilan unga Turkiston Respublikasining xo'jalik qurilishiga rejali rahbarlik qilish vazifasi topshirildi. Turkiston Iqtisodiy Kengashi qarorlari o'lkaning oliy xo'jalik organi sifatida barcha komissarliklar va tashkilotlar uchun majburiy qilib belgilandi. Xullas, respublika iqtisodiyotiga rahbarlik qilish uchun Toshkentda Turkiston Iqtisodiy Kengashi (TES), viloyatlarda esa viloyat iqtisodiy kengashlari tuzilgan (ular viloyat ijroiya qo'mitalari bo'limlarining huquqlariga ega bo'lgan) [5;322].

Yangi iqtisodiy siyosat, nafaqat Rossiyada, balki Turkistonda ham qishloq xo'jaligi va sanoat sohalarida ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan. Xususan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'sishi natijasida Rossiyadan mahalliy sanoat ehtiyojlari uchun asbob-uskunalar va texnika vositalarining yetkazib berilishi, chegaradosh hududlarda qo'shni davlatlar bilan savdo qilish imkoniyati vujudga keldi. Natijada sanoat tarmoqlarining qayta tiklanishi va ishlab chiqarish salohiyati yuksaldi.

Sanoat va shahar xo'jaligida iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlash uchun xususiy tadbirkorlik subyektlariga erkin shart-sharoitlar yaratildi. Jumladan, xususiy shaxslarga o'rta va mayda sanoat korxonalari, savdo obyektlari hamda xizmat ko'rsatish muassasalari ijaraga berildi. Natijada ko'p ukladli mulkchilik shakllandi.

1921-yilgi yer-suv islohoti natijasida Turkistonlik bo'lmagan shaxslarga tegishli yerlar musodara qilinib ularning bir qismi mahalliy aholiga berilgach odamlar o'zlariga berilgan yerdan foydalanishib iqtisodiytni yuksalishiga hissa qo'shdilar. Davlat strategik ahamiyatga ega tarmoqlar – elektr ishlab chiqarish, temir yo'l va boshqalar ustidan o'z nazoratini saqlab qoldi. Masalan, Leninning taklifiga binoan sanoat uchun muhim xom-ashyo yetkazib beruvchi sohalar va yirik korxonalar davlat tasarrufidan chiqarilmagan.

Asta-sekinlik bilan xususiy kapital ishtirokida aksionerlik jamiyatlarini tashkil etishga, ishchi kuchini yollash amaliyotiga huquqiy jihatdan ruxsat berilgan bo'lsa-da, sanoat ishlab chiqarishining 93,1 foizi davlat tasarrufidagi korxonalar hissasiga to'g'ri kelgan [5;323].

Yangi iqtisodiy siyosat davrida Turkiston ASSRning bir qismi bo'lgan Qoraqalpog'iston hududi Amudaryo viloyati deb yuritilardi. 1921-yil avgustda Amudaryo viloyati Sovetlarining 1-favqulodda syezdida oziq-ovqat solig'i masalasi ko'rib chiqilgan. Viloyat Chimboy, Davkara, Toldi va Sho'raxon rayonlariga bo'linib, Chimboy viloyatida, volostlarda, qishloq va ovullarda ham ekin komitetlari tashkil etilgan. Amudaryo viloyatida yerlarni ijaraga berishga ruxsat berilgan. Ijara muddati uch yilgacha etib belgilangan va yerlarning o'rtacha hajmi 20 desyatini tashkil etgan. Bu davrda yerni ijaraga berish qishloq xo'jaligini tezroq tiklashga imkon berdi. Kambag'al dehqon xo'jaliklari 85 ta dehqonchilik artellarini tashkil etgan [6;262].

1921-yilda Chorjo'ydin Amudaryo viloyatiga 25 ming pud chigit jo'natilib, dehqonlarni moddiy kiziqtirish orqali qishloq xo'jaligini, ayniqsa, paxtachilikni tiklashga harakat qilingan. Paxtaga yangi oshirilgan tannarx belgilanib, ular ot-ulov va mehnat majburiyatidan ozod qilingan. Hududda paxta ko'p yetishtirilgani uchun 1924-yilda To'rtko'l shahar paxta komitetiga 10000 pud miqdorda bug'doy berilgan. Paxtaga davlat monopoliyasi e'lon qilingan. 1923-yilning 1-martiga qadar davlatning paxta zavodlarida 43 367 pud paxta xomashyosi va har xil navli paxta tolasining 172 dona toylari to'plangan [5;23]. Ishlov berilgan yerning uchdan biriga paxta ekkan xo'jaliklar soliq to'lovidan ozod qilinib, yer maydoni hajmi ikki desyatnagacha bo'lgan xo'jaliklar yetishtirilgan hosilning 5 foizi miqdorida soliq to'lashlari belgilandi. Yer hajmining ortishi bilan soliq yuki ham ortgan.

1921-yil 4–11-dekabrda Xiva shahrida bo'lib o'tgan yersiz va kam yerli dehqonlarning birinchi qurultoyi ularni yer-suv, ish hayvonlari, mehnat qurollari, urug'lik don, ssuda bilan ta'minlashda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Qurultoyda oziq-ovqat solig'i, yersiz va kam yerli dehqonlar ittifoqining asosiy masalalari

muhokama qilindi, shuningdek, qishloq xo‘jaligi banki tashkil qilish masalasi ham ko‘rildi [6;262].

XXSRda iqtisodiy-siyosat va xo‘jalik sohasidagi islohotlar ziddiyatli tarzda kechdi. Xorazm Respublikasidagi soliq siyosatida sovet Rossiyasining ta’siri kuchliroq bo‘lganligi uchun sinfiy yondashuv yaqqol namoyon bo‘ldi. Soliqning og‘ir yuki savdogarlar, sudxo‘rlar va yirik yer egalari zimmasiga to‘g‘ri keldi. 1922-yil dekabrda qishloq xo‘jaligida yagona soliq tizimi joriy qilindi [2;11–12].

Yangi iqtisodiy siyosat (YAIS)ning e‘lon qilinishi bilan XXSRda karvonsaroylar, korxonalar, ko‘llar va to‘qaylar ijaraga berila boshlandi. Xorazmda daryo kemachiligini tiklashga kirishildi. Bir qancha yirik ko‘priklar qurildi. Paxta maydonlarining hududi 1921-yildagi 10000 tanobdan 1924-yilda 85000 tanobga, hosildorlik 100000 puddan 800000 pudga ko‘tarildi. Umumiy ekin maydonlari 1913-yildagi darajaning 62 foizini, hosildorlik 70–75 foizni tashkil qildi. 1924-yilga kelib, 6 ta paxta tozalash zavodi, 10 ta g‘isht zavodi, yog‘ zavodi, bosmaxona, elektrostansiya tiklandi, qog‘oz va shisha zavodlari qurildi. Sanoatda davlat sektori ustuvor mavqeni egalladi. XXSRning yosh hukumati BXS, Turkiston ASSR, RSFSRdan tashqari Finlyandiya, Shvesiya, Germaniya, Turkiya, Afg‘oniston, Eron kabi xorijiy davlatlar bilan ham mustaqil ravishda savdo-sotiq, iqtisodiy aloqalarni olib borishga harakat qilgan. Xususan, Finlyandiya bilan savdo-sotiq aloqalari samarali bo‘lgan. 1922-yil 5-yanvarda Xiva shahrida respublikada birinchi marta iste‘mol shirkatlari tashkil qilindi. Shundan so‘ng respublikada qisqa vaqt ichida 8 joyda iste‘mol shirkatlari vujudga keldi va Xiva shahrida uning markaziy boshqarmasi tashkil qilindi [6;168–169].

O‘rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi tomonidan tashkil qilingan O‘rta Osiyo qishloq xo‘jalik banki Xorazmdagi kooperativ harakatni jonlantirib yubordi. 1923–1924-yillarda kooperativ iste‘mol shirkatlari tomonidan paxta yetishtirishdan tashqari yana 16000 pud arpa va dukkakli ekinlar, 90000 dona qorako‘l teri, 25000 dona xayvon terilari, 30000 pud bug‘doy, 90050 pud sholi, 16000 pud kunjut va zig‘ir yog‘i kabi xomashyo mahsulotlari tayyorlashga muvaffaq bo‘lindi.

Kamquvvat dehqon xo'jaliklarining iqtisodiy ahvolini ko'tarishda 1923-yil 19-fevralda tashkil qilingan Rossiya–Xorazm davlat paxtachilik shirkatining ahamiyati katta bo'ldi. Rossiya Bosh paxtachilik qo'mitasi va Xorazm Iqtisodiy Kengashi tashkilotlari bu kooperativning asoschilari edi. Ushbu kooperativ shirkatlarning 500000 so'm miqdorda (oltin hisobida) mablag'i bo'lib, Xiva, Xazorasp, Gurlan, Toshhovuz, Mang'it va Xonqada uning alohida bo'limlari mavjud edi. Respublikaning ushbu tumanlari va shaharlarida yig'ilgan paxtani qayta ishlash maqsadida oltita paxta tozalash zavodlari va punktlari qurildi hamda ishga tushirildi [3;46].

Biroq Rossiya paxta shirkatlari dehqonlardan olinadigan paxta xarid narxini pasaytirib yubordi. XXSR MIQniig birinchi kotibi, Xorijiya noziri, Xorazm paxta shirkatining boshlig'i Hanif Kaniev va XXSR Savdo va sanoat noziri Muhammadraxim Nurullaev paxtaning xarid narxini ko'tarish va shu asosda dehqonlar manfaatdorligini oshirish maqsadida paxta savdosida erkin narxni, ya'ni yangi iqtisodiy siyosat asosida savdo yuritishni talab qildilar. Lekin Markazning XXSRdagi vakolatli emissarlari ko'rsatmasi bilan H.Kaniev va M.Nurullaev «xalq dushmani» sifatida ayblandi va o'lim jazosiga hukm qilindi. Ular bilan birga ishlagan ko'plab mahalliy xodimlar ham turli muddatga qamoq jazosiga hukm qilindilar [6;172].

Buxoro Kommunistik partiyasining 1921-yil dekabrda o'tkazilgan 2-syezida Buxoroda ham Yangi iqtisodiy siyosat (YAIS)ga o'tish yo'li e'lon qilindi. Sanoat va savdo-sotiqda xususiy xo'jalik tashabbuslarini rag'batlantirish kerakligi belgilab berildi.

Chegara hududlarida savdo aloqalari rivojlandi va bu taraqqiyotga hissa qo'shdi, jumladan, Karki shahri Buxoroning Afg'oniston bilan savdosida muhim maskan edi. Buxoroda yetishtirilgan qo'rako'l qo'ylari va yungi, Rossiyadan keltirilgan kerosin va qand, Afg'onistondan esa yung, paxta va chorva hayvonlari keltirilgan [1].

YAIS boshlangach Buxoroda sanoat shirkatlari tuzilib, savdo-sotiq va tadbirkorlikka g'amxo'rlik qilinadi. Natijada BXSR iqtisodiyoti rivojlanib, xalqning turmushi yaxshilanadi.

1922-yil 4-yanvardan u o'z faoliyatini boshlagan «Buxoro ikkinchi sanoat shirkati» haqida Buxoro axbori gazetasida u sovun va gugurtni narxini arzonlashtirishi haqida ma'lumot berilgan [6;155–156]. 1922-yili sanoat shirkati tomonidan Buxoroda elektrostansiya qurilishi, gugurt va sovun zavodlarining ochilishi BXSR hukumati o'tkazayotgan yangi iqtisodiy siyosatning ilk samaralari bo'lgan. Bu holatlar BXSR hududida qimmatchilikka qarshi kurash va iqtisodiy inqirozning oldini olishda ham muayyan darajada ijobiy rol o'ynagan [6;155–156].

BXSR hukumati dehqon xo'jaliklariga kooperatsiya yo'li bilan yordam ko'rsatish maqsadida 1923-yil sentabrda kooperatsiya to'g'risida dekret chiqardi va «Buxoro Respublikasida kooperatsiyalar uyushtirish bo'yicha Markaziy kooperativ komissiyasi» tuzildi [6;157].

BXSRdagi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda 1921-yil 12-martda ish boshlab, 1921-yil 9-mayda qayta tuzilgan Buxoro Iqtisodiy Kengashi muhim rol o'ynagan. Kengash faoliyati natijasida Buxoro hukumati G'arbiy Yevropa bozorlariga RSFSR vositachiligida 200 000 dona qorako'l teri sotgan. RSFSR hukumati qorako'l teri uchun 200 000 rubl oltin pulda avans bergan, shuningdek, BXSR hukumati uchun kerakli bo'lgan boshqa maxsulotlarni yetkazib berishni o'z zimmasiga olgan [3;47].

Yangi iqtisodiy siyosatning O'zbekiston hududlarida amalga oshirilishi o'lka iqtisodiyotini fuqarolar urushi va "harbiy kommunizm" oqibatida yuzaga kelgan tanazzuldan chiqarishda muhim o'rin tutdi. Oziq-ovqat solig'ining joriy qilinishi dehqonlarning moddiy manfaatdorligini oshirib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tiklanishiga turtki berdi. Sanoatda mayda va o'rta korxonalarni ijaraga berish, xususiy savdo va xizmat ko'rsatish sohalariga ruxsat berilishi shahar iqtisodiy hayotini jonlantirdi. Kooperatsiya harakatining rivojlanishi esa bozor munosabatlarining ma'lum darajada tiklanishiga xizmat qildi.

Biroq YAIS sharoitida iqtisodiy erkinlik cheklangan va mafkuraviy nazorat ostida bo'lgan. Ayniqsa, paxtachilikka bir yoqlama ixtisoslashtirish siyosati keyinchalik mintaqaning xom ashyo bazasiga aylanib qolishiga zamin yaratdi. Shu bilan birga, mahalliy rahbar kadrlarga nisbatan qo'llanilgan siyosiy ta'qiblar NEPning haqiqiy iqtisodiy imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qildi.

Umuman olganda, Yangi iqtisodiy siyosat davri O'zbekiston hududlari tarixida iqtisodiy tiklanish, bozor unsurlarining qisman qaytishi va bir vaqtning o'zida markazlashgan boshqaruvning kuchayishi bilan xarakterlanadigan ziddiyatli, ammo muhim tarixiy bosqich sifatida namoyon bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. “Бухоро ахбори” газетаси, №207. 1923 йил 27 сентябрь.
2. Жизнь национальностей. – Москва, 1922. – №4. – С. 10-18.
3. Пардаев А. Бухоро ва Хоразмдаги Иқтисодий Кенгашлар фаолияти (1920–1924-йиллар). – Тошкент: Yangi nashr, 2015. – 176 б.
4. Сарыбаев М. Политика хлопковой монокультуры Советской власти в Каракалпакстане и ее последствия (1917-1990 гг.). – Ташкент: Изд-во Национальной биб.-ки Узбекистана им. Навои, 2008.
5. Ражабов Қ. Ўзбекистон XX асрда. Икки жилдлик. Биринчи жилд (1900-1939). /Масъул муҳаррир: академик Азамат Зиё. – Тошкент: Фан, 2024. – 752 б.
6. Ўзбекистон тарихи (1917–1991 йиллар). К. 1. / Масъул муҳаррирлар Р.Абдуллаев, М. Раҳимов, Қ. Ражабов. – Тошкент: O'zbekiston, 2019. – 560 б.